

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**5350600 –Kutubxona-axborot faoliyati  
(kutubxonachilik va bibliografiya) ta'lim yo‘nalishi  
bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat  
attestatsiya sinovi**

**DASTURI**

*2023/2024 o‘quv yili*

**Tuzuvchilar:**  
O.R.Topildiyev NamDU musiqa ta'limi va madaniyatshunoslik kafedrası dotsenti, t.f.n.

B.B.Inatullayev NamDU musiqa ta'limi va madaniyatshunoslik kafedrası dotsenti

M.X.Tojxmedova NamDU musiqa ta'limi va madaniyatshunoslik kafedrası katta o'qituvchisi

**Taqrizchilar:**  
N.O.G'ofurov NamDU tarix kafedrası dotsenti, t.f.n.

M.G'. Jo`rabayeva Nodirabegim nomidagi Namamangan viloyat axborot kutubxona markazi direktori

5350600–Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Musiqa ta'limi va madaniyatshunoslik kafedrasining 2024 yil «\_\_»  
dagi № \_\_\_\_-sonli majlisida muhokama qilingan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri



O.R.Topildiyev

5350600–Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Pedagogika fakultetining 2024 yil «\_\_»  
dagi № \_\_\_\_-sonli majlisida muhokama qilingan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan.

Fakultet dekani

M.L.Boltayeva

5350600–Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Namangan davlat universiteti Kengashining 2024 yil «12»  
mart dagi № 9 -sonli majlisida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Kengash kоти



A.To'xtabayev

## **I. UMUMIY QOIDALAR**

1. 5350600–Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi (keyingi o'rinlarda – Dastur) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2009 yil 22 maydagi 160-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida”gi Nizom, 2020 yil 14 avgustdagi 418-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “5350600–Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari” (keyingi o'rinlarda – Malaka talablar) hamda №B5350600-20 tartib raqami bilan ro'yxatga olingan o'quv rejasining (keyingi o'rinlarda – O'quv rejasi) umumkasbiy va ixtisoslik fanlari o'quv dasturlari asosida tuzildi.

2. Fanlararo yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi (keyingi o'rinlarda – Attestatsiya sinovi) O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibga ko'ra, bitiruvchilarning Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan biri hisoblanib, unda ta'lim yo'nalishi xususiyati, iqtidori va xohishiga ko'ra bitiruv malakaviy ishi yozish istagini bildirmagan, o'quv rejasidagi ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan bitiruvchi kurs talabalari ishtirok etishlari shart.

3. Attestatsiya sinovini topshirishga o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarga ruxsat beriladi.

4. Attestatsiya sinovi O'quv rejasining umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining barchasini qamrab oladi hamda sinov topshiriqlari ushbu fanlar o'quv dasturlari asosida tuziladi.

5. Attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining Malaka talablarida bitiruvchiga qo'yiladigan umumiy talablarga javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

## **II. ATTESTATSIYA SINOVI SHAKLI VA MUDDATI**

6. 2023/2024 o'quv yilida 5350600–Kutubxona-axborot faoliyati (kutubxonachilik va bibliografiya) ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining Attestatsiya sinovi – axborot texnologiyalarini tatbiq etgan holda test shaklda o'tkaziladi.

7. Dastur universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab, o'quv yili yakuniga qadar Attestatsiya sinovi shaklini o'zgartirish mumkin emas.

8. Attestatsiya sinovi universitet o'quv jarayoni grafigiga asosan, o'quv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlangan muddatlarda o'tkaziladi va kamida bir oy oldin talabalarga yetkaziladi.

### **III. ATTESTATSIYA SINOVI SAVOLNOMASI**

9. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi Malaka talablarining

- bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga;

- kasbiy faoliyatga;

- umumkasbiy va ixtisoslik fanlariga qo'yilgan talablarni qamrab oladi.

10. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi O'quv rejasida keltirilgan quyidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlar dasturlari asosida shakllantirildi:

### **YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI UCHUN SAVOLLAR RO'YXATI**

#### **Kutubxonashunoslik**

1. Axborot-kutubxona faoliyatini jamoatchilik xarakteri va kutubxonachi mehnatining ijodiyliigi.

2. Axborot-kutubxona muassasalaridan foydalanuvchilarni huquqlari va majburiyatlari.

3. Bolalar kitobxonligi,

4. Bolalarga kutubxona xizmati ko'rsatish.

5. Bolalarga xizmat ko'rsatadigan kutubxonalar shaxobchalarini shakllantirish masalalari

6. Bolalarni tarbiyalashda kutubxonalarining roli va vazifalari to'g'risida

7. Kitobxonlarni o'rganish metodikasi

8. Kitobxonlarning kundalik ishlab chiqarish va maishiy talablarini hisobga olish va sharoit yaratish

9. Kitobxonlarning qiziqishini o'rganish usullari

10. Kutubxona tushunchasi

11. Kutubxona-axborot faoliyati va kutubxonachilik mutaxassisliklari

12. Kutubxonachi faoliyatiga doir kataloglashtirish bo'yicha mavjud rahbariy va meyoriy materiallar

13. Kutubxonachi shaxsiga bo'lgan umumkasbiy talablar.

14. Kutubxonachining faoliyatidagi javobgarliklar.

15. Kutubxonachining huquqlari.

16. Kutubxonalar tipologiyasi tushunchasi va nazariyasini rivojlanishi.

17. Kutubxonashunoslik faniga kirish. Ushbu fanni o'qitishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar.

18. Kutubxonashunoslik faniniga kirish, fanning maqsadi va vazifalari

19. Kutubxona tushunchasi

20. Kutubxonachi kadrlar tayyorlash sohasida yangi yondoshuvlarning paydo bo'lishi va ta'lim tizimidagi islohotlar.

21. Kutubxonachi kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish.

22. Kutubxonachi tushunchasi

23. Kutubxonachilik ishiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish

24. Kutubxonachilik sohasida kutubxonachi shaxsining ijtimoiy moslashuvi.
25. Mustaqillik yillarida kutubxonashunoslik fanini rivojlantirish muammolari
26. O‘zbekiston Respublikasi aholisiga kutubxona xizmati ko‘rsatishning tashkil etilishi.
27. O‘zbekiston Respublikasidagi kutubxonalarning asosiy turlari.
28. O‘zbekistonda kutubxonachilik ishini tashkil etishning xududiy xususiyatlari.
29. O‘zbekistonda kutubxonalarga metodik rahbarlikning tashkil etilishi.
30. O‘zbekistonda kutubxonachi kadrlarning tayyorlash va sifatiga qo‘yilgan talablar.
31. O‘zbekistonda kutubxonachilik ishining rivojlanishi. 32. O‘zbekistondagi oliy ta‘lim tizimida kutubxonachilar tayyorlash tizimi usullari asosida rivojlanishi.
33. Respublika aholisiga kutubxona xizmati ko‘rsatishning tashkil etilishi.
34. XX asrda kutubxonashunoslik fanining rivojlanishi va istiqbollari.
35. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda kutubxonalarning o‘rni

### **Madaniyat tarixi**

1. Sharq uyg‘onish davri madaniyati.
2. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati tarixi
3. Rossiya va AQSh madaniyati tarixi
4. XI-XVII asrlarda G‘arbiy yevropa madaniyati tarixi
5. O‘rta Osiyo xonliklarida madaniy hayot.
6. Chor Rossiyasi va Sho‘rolar hukmronligi davrida o‘zbek madaniyatining rivojlanishi
7. XIX asrning II yarmi – XXI asr boshlarida jahonda ilm-fan va madaniyat
8. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda madaniy hayot
9. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixi
10. Zardushtiylik dini va Avesto tarixi
11. Islom dini va madaniyati tarixi

### **Kutubxona-axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti**

1. Axborot-kutubxona xizmati tizimi
2. Axborot-kutubxona xizmatida etika, muhit va samaradorlik.
3. Axborot-kutubxona xizmatida iste‘molchilar va o‘qish psixologiyasi: nazariyasi va usullari.
4. Axborot- kutubxona xizmatini ko‘rsatishda kitobxonlar qiziqishini o‘rganish, uning maqsadi, vazifalari, ular bilan yakka tartibda ishlash usullari
5. Axborot-kutubxona xizmatini ko‘rsatishda bilim sohasiga oid adabiyotlar targ‘iboti
6. Axborot-kutubxona muassasalarining turiga ko‘ra tarkibiy bo‘linmalari, ularning vazifalari va o‘zaro aloqasi
7. Axborot-kutubxona muassasalari xodimlari bilan ishlash.
8. Axborot-kutubxona muassasalarida rejalashtirish va reja turlari

9. Jamiyatda axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatish zarurati
10. Axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishning huquqiy asoslari
11. Kitobxonlik madaniyatini oshirish yo'llari
12. Axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishning tarixiy taraqqiyoti
13. Milliy kutubxona faoliyati Axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishda tarbiya elementlari
14. Axborot-kutubxona sohasida davlat siyosati
15. Axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishning texnik vositalari
16. O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida faoliyat olib borayotgan axborot-kutubxona markazlari faoliyati
17. Axborot-kutubxona markazlarida ish yuritish va hujjatlar bilan ishlash
18. Axborot-kutubxona markazlari hodimlariga qo'yiladigan talablar va kasbiy fazilatlar
19. Axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishning istiqbollari

### **Bibliografiyashunoslik**

1. Bibliografiyaning tarixi: bibliografiya tushunchasi, kelib chiqishi, zamonaviy talqini.
2. Bibliografiya nazariyasi.
3. Qadimgi sharq davlatlarida bibliografiyashunoslik
4. Antik davrda bibliografiyashunoslik.
5. Qadimgi Xitoy va Hindistonda bibliografiyashunoslik.
6. O'rta Osiyoda bibliografiyaning paydo bo'lishi
7. Amir Temur va Temuriylar davrida bibliografiyashunoslik.
8. O'zbek xonliklarida madaniy hayot va bibliografiyashunoslik.
9. O'rta asrlarda yevropada bibliografiyashunoslikning rivojlanishi.
10. Fransiya va Angliyada bibliografiyashunoslik va bibliografik faoliyat.
11. Amerika qo'shma shtatlarida bibliografiyashunoslik va bibliografik faoliyat.
12. Rossiyada bibliografiyashunoslik va bibliografik faoliyat.
13. Bibliografik axborotning asosiy shakllari, axborotni yig'ish va uzatish.
14. Bibliografiyaning ijtimoiy munosabatlardagi o'rnini belgilash masalalari.
15. Bibliografiyaning obektlari.
16. Vaqtli matbuot nashrlarining klassifikatsiyasi.
17. Bosma mahsulotlarni nashr etish. Nashriyotlar
18. Axborot — bibliografiya resurslari.
19. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida Turkistonda bibliografiya ishi.
20. O'zbekistonda milliy va davlat bibliografiyasi
21. Respublika Milliy kitob palatasi faoliyati
22. Retrospektiv bibliografik qo'llanmalar.
23. Maxsus bibliografik qo'llanmalar
24. Nashriyot va kitob savdosida bibliografik qo'llanmalar.
25. O'lkashunoslik bibliografik qo'llanmalar.
26. O'zbekistonning mashhur bibliograflari

27. Kutubxonalarning bibliografik faoliyati.
28. Kutubxonalarning ma'lumot — bibliografiya apparati (mba)
29. Kutubxonalarda bibliografiya ishini tashkil etish.
30. Tavsiya ko'rsatkichlarining kichik shakllarini tuzish.
31. Og'zaki bibliografik obzorlarni tayyorlash va o'tkazish
32. Iste'molchilarga ma'lumot-bibliografiya xizmati (mbx) ko'rsatish
33. Kutubxonani bibliografik axborotlashtirish
34. Xalqaro bibliografik formatlar
35. Kitobxonlarning axborot va kompyuter madaniyatini tarbiyalash, shakllantirishda kutubxonalar faoliyati
36. Ijtimoiy fanlar bibliografiyasi
37. Bibliografiya tarixi
38. O'zbekiston bibliografiyasi tarixi
39. O'zbekistonda sho'rolar davrida bibliografik faoliyat
40. ARMning virtual ma'lumot - bibliografik xizmatini o'rganish va tahlil qilish.
41. Bibliografik yozuv. Titul varag'i bilan ishlash. Turli xil bosma maxsulotlar uchun bibliografik elementlarni aniqlash.

### **O'zbekiston (xorijda) kutubxonachilik ishi tarixi**

1. O'zbekistonda (xorijda) kutubxonachilik ishi tarixi faniga kirish
2. O'zbekiston hududida arablar istilosiga qadar vujudga kelgan yozuv, dastlabki kitob va kutubxonalar. Avesto
3. O'rta Osiyoning qadimgi kutubxonalari faoliyati
4. O'rta Osiyoda bibliografiyaning paydo bo'lishi
5. Amir Temur va Temuriylar davrida madaniy hayot. Kutubxonalar
6. Shayboniylar hukmronligi davrida kutubxonalar
7. XVII-XX asrlarda Buxoro amirligida madaniy hayot va kutubxonalar
8. XVII-XX asrlarda Xiva xonligida madaniy hayot va kutubxonalar
9. XVII-XX asrlarda Qo'qon xonligida madaniy hayot va kutubxonalar
10. XVIII-XIX asrlarda o'zbek xonliklarida kitob savdosi
11. Sharq qo'lyozma kitoblarini to'plash, saqlashda Turkistondagi mahalliy muassasalar va olimlarning ro'li
12. Eng qadimgi sivilizatsiya davlatlarida kutubxonalarning paydo bo'lishi
13. Antik davr kutubxonalari
14. Sharq davlatlari kutubxonalari. Xitoy, Xindiston, Yaponiya.
15. Arab xalifaligi davri kutubxonalari. Qur'on kitobi.
16. O'rta asr universitet kutubxonalari
17. Yevropada uyg'onish davri kutubxonalari faoliyati tarixi
18. Germaniyada kutubxonachilik ishi.
19. Fransiyada kutubxonachilik ishi.
20. Angliyada kutubxonachilik ishi.

21. Amerika qo'shma shtatlarida kutubxonachilik ishi
22. Rossiyada kutubxonachilik ishi
23. Turkiston jaddidlarning matbuot, kitob, kutubxonalar rivojiga qo'shgan hissalar
24. Mustaqil O'zbekistonda kutubxonashunoslik tarixi

### **Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari**

1. Kutubxona-axborot faoliyatining meyoriy-huquqiy asoslari faniga kirish
2. Axborot sohasini rivojlantirish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash
3. Kutubxona-axborot faoliyatini normativ-huquqiy tartibga solishning nazariy asoslari
4. Axborot-resurs markazi (kutubxona) faoliyatini takomillashtirishga tegishli amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar
5. Kutubxona-axborot xizmati ko'rsatishning xalqaro miqyosdagi va mamlakatimizdagi huquqiy meyoriy asoslari
6. Axborot-resurs markazi (kutubxona) xodimlariga qo'yiladigan talablar
7. 2019-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasida axborot-kutubxona sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi

### **Kitob tarixi**

1. Kitob tarixi faniga kirish
2. Kitob va kitob ishining qonuniyatlari, tamoyillari va davrlashtirish masalalari
3. Yozuvning kelib chiqishi va rivojlanishi.
4. Qadimgi dunyo davrida kitob va kutubxonalar
5. O'rta Osiyo harfli-tovushli yozuv tizimlarining kelib chiqishi shakllanish qonuniyatlari
6. Kitob va kitobat madaniyati tarixida Avestoning tutgan o'rni.
7. O'rta Osiyoda turli yozuv tizimlari rivojlanishining asosiy tarixiy bosqichlari va yetakchi tamoyillari.
8. O'rta Osiyoda qog'oz ishlab chiqarishning paydo bo'lishi va rivojlanishi.
9. O'rta asrlarda kitobat madaniyati: rivojlanish yo'llari va hususiyatlari)
10. Qo'lyozma va toshbosma kitoblar turlari.
11. Qo'lyozma kitoblarni ko'chirish va nusxalarini ko'paytirish.
12. O'rta asrlarda qo'lyozma kitoblarning estetik va texnologik tavsifi. Kitob yaratish jarayonlari.
13. O'rta asr Turonzamin kitoblar repertuarlari.
14. IX-XIII asrlardagi O'rta Osiyolik olimlarning asar va kitoblari.
15. XIV-XVI asrlarda Yevropa mamlakatlarida poligrafiya usullarining kashf qilinishi va uning ahamiyati.
16. O'rta asrlar kutubxonachiligi.
17. Alisher Navoiy va milliy Turonzamin kitobat madaniyati.
18. O'zbek xonliklari hukmronligi davrida kutubxonalar, kitob-va kitobat ishi.
19. Chor Rossiyasi hukmronligi davrida Mustamlakka turkistonda kitobat ishi
20. Turkiston shaharlarida toshbosma matbaasining tashkil topishi.



21. Ishoqhon Ibrat toshbosma matbaasi faoliyati.
22. Chorizm hukmronligi davrida Turkistonda rus tilida kitob noshirchiligi..
23. Sovet hukumati hukmronligi davrida O'zbekistonda kitob va kitobat ishi.
24. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda kitob va kitobat ishi.

#### **IV. ATTESTATSIYA SINOVI NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI**

11. Attestatsiya sinovi bo'yicha talabalar bilimini baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

12. Attestatsiya sinovi bo'yicha talabalar bilimini baholashda 5 baholik tizim qo'llaniladi.

13. Talabaning Attestatsiya sinovidagi natijalari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatlarini ochib beradi, topshiriq (mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda topshiriq (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – "5" (a'lo) baho;

Talaba mustaqil mushohada yuritadi, o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatlarini ochib beradi, topshiriq (mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda topshiriq (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – "4" (yaxshi) baho;

Talaba o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatlarini ochib beradi, topshiriq (mavzu)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda topshiriq (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – "3" (qoniqarli) baho;

Talaba mazkur Dasturni o'zlashtirmagan, topshiriq (mavzu)ning mohiyatini tushunmaydi hamda topshiriq (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas, deb topilganda – "2" (qoniqarsiz) baho.

14. Axborot texnologiyalarini qo'llash orqali o'tkaziladigan test sinovlarida har bir talabaga 100 (yuz) ta savoldan iborat test varianti taqdim etiladi.

Har bir test variantida mazkur Dasturga kiritilgan fanlarga doir savol (topshiriq)lar nisbati o'zaro mutanosib taqsimotda bo'lishi lozim.

Talaba bilimi Attestatsiya sinovida to'g'ri topilgan test savollari soniga nisbatan quyidagi taqsimotda baholanadi:

86 ta va undan ko'p savollarga to'g'ri javob berilganda – 5 ("a'lo");

71 tadan 85 tagacha savollarga to'g'ri javob berilganda – 4 ("yaxshi");

55 tadan 70 tagacha savollarga to'g'ri javob berilganda – 3 ("qoniqarli");

54 ta va undan kam savollarga to'g'ri javob berilganda – 2 ("qoniqarsiz").

Test shaklidagi Attestatsiya sinoviga 3 (uch) soat vaqt beriladi.

Test shaklidagi Attestatsiya sinovi talabalar sig'imiga qo'yiladigan texnik talablarga mos, kompyuterlar bilan jihozlangan o'quv xonalari (hudud)da o'tkaziladi.

15. Talaba baholash natijalaridan norozi bo'lgan taqdirda Attestatsiya sinovlari natijalari Komissiya tomonidan e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 (yigirma to'rt) soat davomida apellyasiya berishi mumkin.

Talabaning apellyasiya murojaati universitet rektori buyrug'i asosida tuziladigan Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 (ikki) kun ichida ko'rib chiqiladi va uning natijasi bo'yicha qaror qabul qilinadi.

## **V. ATTESTATSIYA SINOVI BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI VA QO'SHIMA USLUBIY KO'RSATMALAR**

16. Dasturni o'zlashtirish bo'yicha foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

### **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati** **Asosiy adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O'zbekiston nashriyoti, 2017
4. Miziyojev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Axunjanov E.O. Vatan kutubxonachiligi tarixi.-1-qism Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2004.-106 b.
6. Axunjonov E. Kutubxonashunoslik, Arxivshunoslik, Kitobshoslik nazariy va tarixi.-Toshkent.: Tafakkur, 2011.-520 b.
7. Axunjanov E.A. Vatan kutubxonachiligi tarixi 2-qism.-T, 2 Darslik / -Toshkent, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2006.-150 b.
8. Qosimova O. va Yesimov T.Umumiy kutubxonashunoslik: ; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.-T.: "O'qituvchi", 1994.350 b.
9. Saidov U., Nigmatova Z., Shamsiyev Sh. Kutubxonashunoslik va bibliografiya atamalarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. -224 b.
10. Yesimov.T.B O'zbekistonda kutubxonachilik ishining shakllanishi va rivojlanishi.-T.:1994.-74 b.
10. Yo'ldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon. O'quv qo'llanma. –Toshkent: O'zbekiston, 2003.
11. Saidov U., Nig'matova Z., Shamsieva Sh. Kutubxonashunoslik va bibliografiya atamalarining izohli lug'ati.–Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006.
12. Islomov E. Yo'ldoshev E. Maktab kutubxonasi ishini tashkil etish. O'quv qo'llanma. –Toshkent: O'qituvchi, 1992.

13. Yo'ldoshev E. Maktab va litsey kutubxonasi ishini tashkil etish. -Toshkent: O'qituvchi, 1997.
14. Tursunboev S. Jahon teatri tarixi. –T.: Fan va texnologiya, 2008. -276 b.
15. Gulmetov E. Madaniyatshunoslik. Darslik. – T. 2000.
16. Mavrulov A.A. Madaniyat va tafakkur o'zgarishlari. – T. 2004.
17. Mavrulov A.A. Ta'lim tizimida madaniyat masalalari. – T. 2004.
18. Mavrulov A.A. Nishonboeva Q. Madaniyat tarixi. O'quv uslubiy qo'llanma. - T. 2006.
19. Jabborov I. O'z bek xalq etnografiyasi. T., 1997 yil.
20. Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. T., "Fan", 1991.
21. Sadikov X., Glass Y., Soy ye. Muzei Uzbekistana. T., 1992.
22. O'zbekiston Davlat Tabiat muzeyi. Muzey bo'ylab sayohat (yo'l ko'rsatgich). Toshkent. 2001 y.
23. O'ljaeva Sh. Muzeyshunoslik (O'quv qo'llanma). –Toshkent, 2002.
24. Bekmurodov M.B. Rashidova M.X. Muzeyshunoslik. Darslik. –Toshkent, 2006.
25. Ismoilova J.H., Nishonova K.S., Muhamedova M.S. Muzey va jamiyat. Darslik.- Toshkent, 2015

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Dreevnya Gretsiya: Istoriya. Nit. Kultura. Iz knig sovremmenix uchenix. M. 1997.
2. Xidoyatov G. A. Jahon tarixi. T. Sharq, 2003.
3. Volk S.S. Eng yangi tarix. T., O'qituvchi , 1995.
4. Mirzaeva M. Madaniyat pedagogikasi. O'quv qo'llanma. T., 2005.
5. Ergashov Sh. Xorijiy mamlakatlarning yangi tarixi. Darslik. Farg'ona. 2008.
6. Abdullaev N San'at tarixi: ikki jildlik. - T.: San'at nashriyoti, 2001.-192 b.
7. Abdullaev N San'at tarixi: ikki tomlik. -T.: O'qituvchi. 1986. - 272 b.
8. Avdiev V.I. Qadimgi Sharq tarixi. –T.: O'rta va oliy maktab. 1964.- 828 b.
9. Qurbongaliev R. O'rta asrlar tarixi: o'quv-metodik qo'llanma.-T.: O'Qituvchi, 1991.-280
10. Semyonov B.F. O'rta asrlar tarixi.-T.: O'qituvchi . 1973 . -640 b.
11. Lafasov M. Jahon tarixi. –T.: Turon-Iqbol. 2008 . -368 b.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi Pf-4947-son farmoni // Xalq so'zi, 2017 yil 8 fevral
13. "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: "2017-2021 yillarda o'zbekiston resublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi". Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 8 fevral soni va internet resurs: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" Davlat dasturi to'g'risidagi Farmoni 2019 yilning 18 yanvar. // Xalq so'zi 2019 yil 19-yanvar
15. Mirziyoev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi - huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir" O'zbekiston

- Respublikasi [Konstitutsiyasi](#) qabul qilinganining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Xalq so'zi, 2021 yil 7 dekabr.
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020-yil 24 yanvar
  17. Axborot-kutubxona faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni // Xalq so'zi-2011.14 aprel.
  18. Respublika axolisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida" 2006 yil 20 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori // Xalq so'zi-2006.-20 iyun.
  19. Umarov A. Mamlakat kutubxonachiligi islohotlat yo'lida: muammo va ychimlar Sentral Azoya-2006: Fan, ta'li, madaniyat va biznes sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish: Konfirensiya materiallari. –Urganch –Xiva, 2006,-B. b.10-16.
  20. Upravleniya sovremennoy bibliotekoy: Nastolnaya kniga menedjera.-M: OGI, 1999.-128s.
  21. Shir D.X Vvedeniya v bibliotekovedeniye; Osnovniye elementi bibliotechnogo obslujivaniya. –M., 1983.-256s.
  22. Altuxova G.A. Professionalnaya etika biliotekariya/ Uchebnoye posobiye-2-yeizd.ispr.i dop.-M.:Izd-vo MGUK: profizdat, 2000,-103 s.
  23. Axborot-bibliografiya faoliyati, bibliografiya. Atamalar va tushunchalar: O`z DSt 1214: Rasmiy nashr: 2009 y. 14 aprelda № 05-143 ro'yxatga olingan va 2009 y. 20 apr. amalga joriy etila boshlagan / Tuzuvchilar: M.X.Maxmudov, A.SH.Muxamadiev; O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash agentligi.- T., 2009.- 86 b.
  24. Bibliografik yozuv. Bibliografik tavsif: Umumiy talablar va tuzish qoidalari: O`z DSt 1215: Rasmiy nashr: 2009 y. 14 aprelda № 05-143 ro'yxatga olingan va 2009 y. 20 apr. amalga joriy etila boshlagan / Tuzuvchilar: X.Mamatraimova, D.Qudratova; O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash agentligi.- T., 2009.- 86 b.

## **VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR**

17. Dasturda belgilangan qoidalar O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, shuningdek ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan qoida va me'yorlarga zid kelsa, yuqori turuvchi organlarda belgilangan qoida va me'yorlar amal qiladi.

18. Dastur Universitet Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e'tiboriga yetkaziladi hamda universitetning rasmiy saytiga joylashtiriladi.

19. Fakultet dekanlari tomonidan bitiruvchi kurs talabalariga mazkur Dastur asosida tayyorgarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

